



The use of modern technologies in the development of English reading competence of the higher-grade pupils of schools specialized in-depth study of English

Azamat KODIROV¹

Namangan State Institute of Foreign Languages named after Iskhakhan Ibrat

ARTICLE INFO

Article history:

Received March 2024

Received in revised form

10 April 2024

Accepted 25 April 2024

Available online

25 July 2024

Keywords:

reading,
reading competence,
reading skills,
reading techniques,
reading strategies,
reading exercises and tasks

ABSTRACT

In this article, the author discusses modern technologies designed for the development of reading competence in higher-grade pupils of schools specialized in teaching foreign languages, the importance of reading in learning a foreign language, types of reading, reading techniques, reading strategies, the views of local and foreign methodists on the importance of reading in teaching and learning a foreign language, suggestions on the organization of the study process.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3-pp49-55>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ixtisoslashtirilgan maktablar yuqori sinf o'quvchilarining ingliz tilida o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

o'qish, o'qish
kompetensiyasi,
o'qish malakasi,
o'qish texnikasi,
o'qish strategiyalari,
o'qish mashqlari va
topshiriqlari.

Ushbu maqolada muallif chet tiliga ixtisoslashtirilgan maktablarning yuqori sinf o'quvchilarida o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga mo'ljallangan zamonaviy texnologiyalar, o'qishning chet tilini o'rganishdagi ahamiyati, o'qish turlari, o'qish texnikasi, o'qish strategiyalari, o'qishning chet tilini o'rgatish va o'rganishdagi ahamiyati borasida mahalliyva xorijiy metodistlarning qarashlari, o'qish jarayonini tashkil etish haqida takliflari berilgan.

¹ (PhD) Doctoral student, Namangan State Institute of Foreign Languages named after Iskhakhan Ibrat.
E-mail: azamatqodirov1309@gmail.com

Использование современных технологий в развитии компетенции чтения на английском языке у учащихся старших классов школ специализированного углубленного изучения английского языка

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

чтение,
читательская
компетентность,
навыки чтения,
техники чтения,
стратегии чтения,
упражнения и задания по
чтению.

В данной статье автор рассматривает современные технологии, предназначенные для развития читательской компетентности у старшеклассников школ с преподаванием иностранных языков, значение чтения в изучении иностранного языка, виды чтения, техники чтения, стратегии чтения, мнения отечественных и зарубежных методистов о значении чтения в преподавании и изучении иностранного языка, предложения по организации учебного процесса.

KIRISH

Amerikalik mashhur tilshunos olim Stiven Kreshen o'rganishlari asosida shuni ta'kidlaydiki, o'qish va kitoblar mutolaasini yaxshi ko'ruvchi o'quvchilar o'qish faoliyatini xushlamaydigan o'quvchilarga qaraganda barcha fanlarni samaraliroq o'zlashtirishlari isbotlangan [6]. O'quvchilarda matnda berilgan axborotni o'qib tushunish malakasini shakllantirish umumiy o'rta ta'lim maktablarida bitiruvchilar uchun yakuniy amaliy maqsad bo'lib hisoblanadi [1, 5-bet].

O'qish tushunchasi yozma shakldagi, harfiy belgilar yordamida ifodalangan axborot mazmunini tushuna olishni anglatadi. O'qish ko'nikmalarining shakllantirilishi o'z navbatida gapirish, yozish va tinglab tushunish ko'nikmalari shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. O'qish barcha davrlarda bo'lganidek, hozirgi zamonamiz insonlari uchun ham o'zlashtirilishi lozim bo'lgan juda zaruriy hayotiy ko'nikma hisoblanadi. O'qish malakasini egallash orqali o'quvchilar chet tilidagi darslik va o'quv qo'llanmalarini, sohaga oid ilmiy adabiyotlarni, ilmiy va badiiy uslubdagi asarlarni va maqolalarni, ko'chalarda uchrovchi ko'rsatmalarni, internet tarmog'idagi ma'lumotlarni, ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar mazmuni kabilarni anglab olish qobiliyatiga ega bo'ladilar. O'qilgan matn mazmunini o'qish malakalarini egallagan o'quvchi qiyinchiliksiz tushuna oladi. O'qish malakasi quyidagi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi:

1. O'qish texnikasini o'zlashtirish-yozma matnni ayta olish, harflar yordamida yasalgan so'zni to'g'ri o'qiy olish, tovush-harf munosabatlarini tushuna olish, o'qilish qoidalarini bilish.

2. Leksik ko'nikmalarni o'zlashtirish-so'z va so'z birikmaslarining ma'nosiga harfiy timsolini mazmuniga bog'lay olish.

3. Grammatik ko'nikmalarni o'zlashtirish – so'z va so'z birikmalarining grammatik shaklini ma'nosiga bog'lab tushuna olish.

Yuqoridagi uch ko'nikma asosida o'qish malakasi shakllanadi.

O'qib tushunish nutq faoliyati turlaridan tinglab tushunish kabi retseptiv nutq faoliyati turiga mansub, ya'ni ikkala nutq faoliyati turlarida ham yozma yoki og'zaki berilgan matnni qabul qilish jarayoni nazarda tutiladi. O'qish jarayonida grafik matn, tinglash jarayonida esa audiomatn orqali mazmun idrok etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mashhur metodist olim J.J. Jalolov “o’qish” tushunchasiga o’qituvchilar orasida keng tarqalgan quyidagi ta’rifni keltiradi: *o’qish deganda, harfiy belgilarda ifodalangan nutqiy axborotni idrok etish va uning mazmunini payqash jarayoni tushuniladi*. [1, 252-b]. Umuman olganda ushbu ta’rif o’qish tushunchasini yetarli darajada tavsiflaydi. Shu o’rinda, o’qish jarayon sifatida ko’p qirrali tushuncha ekanligini ham alohida ta’kidlash o’rinli bo’ladi. Ingliz tilshunosi Uilyam Greyb o’qishni jarayon sifatida quyidagicha tasvirlaydi [5. 14-b]:

– O’qish tezkor jarayon-o’qish chog’ida qisqa vaqt ichida mazmunni anglash talab etiladi.

– Samarali jarayon-o’qish orqali barcha nutq malakalari rivojlantirilishi va o’rganilgan leksik va grammatik birliklarning nutqdagi ifodalaniashini, real nutqda qanday ishlatilishini ko’rish mumkin.

– Anglash jarayoni

– Interfaol jarayon-o’qish chog’ida ko’ruv sezgisi orqali ma’lumotni qabul qilinadi va ongimizda ma’lumotni anglash, qayta ishlash, ichda o’qish, tahlil qilish, fikr yuritish kabi jarayonlarni ham o’z ichiga oladi.

– Strategik jarayon-o’qishning turli strategiyalaridan o’qish chog’ida topshiriq xususiyatidan kelib chiqqan holda to’g’ri foydalanish talab etiladi.

– Moslashuvchan jarayon-o’qish turi o’qilayotgan matn xususiyatlariga, matnga berilgan savol topshirig’iga, matnning qiyinchilik darajasiga ko’ra mos usulda tanlanishi mumkin.

– Maqsadli jarayon-o’qish uchun o’quvchi o’z maqsadiga ko’ra, o’z ehtiyojlariga binoan o’qish materialini tanlashi mumkin.

– Baholash jarayoni-o’qish orqali o’quvchi chet tilidagi o’zining leksik, orfografik, grammatik bilimlarini baholashi mumkin.

– O’rganish jarayoni-o’qish orqali cheksiz ma’lumotlar olinishi mumkin.

– Lingvistik jarayon-o’qish orqali til materiali mashq etiladi, takrorlanadi, mustahkamlanadi, ichki tushunuv, tarjima jarayoni ham sodir bo’ladi.

Yuqoridagilarga asoslanib o’qish murakkab jarayon, jarayonlar yig’indisi ekanligi anglashiladi. O’qish jarayonida muvaffaqiyatga erishishlari uchun o’quvchilarda o’qish startegiyalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O’qish strategiyalari o’quvchi o’qish paytida o’quvchi tomonidan matnni tushunishga qaratilgan harakatlar majmuasi sifatida izohlanishi mumkin. O’qish malakalari avtomatik tarzda, o’z-o’zidan kechuvchi ma’lumotni tahrirlash texnikalarini bildiradi. Bular eng sodda jarayon bo’lmish grafema-tovush aloqadorligini anglashdan tortib toki matndan xulosalar olishga qadar bo’lgan darajalarda bo’ladi. O’qish malakalariga muntazam takrorlash, mashq qilish, ko’p o’qish, o’qishdan orttirilgan tajriba, ko’rsatmalarni to’g’ri tushunish, luga’t va grammatik bilimlarni orttirish orqali erishiladi. Strategiyalar esa o’qishdan ko’zlangan maqsadga erishish uchun atayin tanlangan harakatlar majmuasidir. T. Hadson va U. Greyblar quyidagi o’qish strategiyalarini ajratib ko’rsatishgan [5].

– oldin egallangan bilimlarni ishga solish, ularga tayanish;

– savollar asosida o’qish;

– ongda o’qilgan matn siymosini yaratish;

– matn asosida savollar tuzish;

– bog’liqliklarni, assotsiatsiyalarni yaratish;

- matnni oldinda ko'z yugurtirib ko'rib chiqish;
- xulosalar yasash;
- matn strukturasi tushunish;
- grafik jadvallar tuzish;
- qayta o'qib chiqish;
- tezlikni matnga qiyinchilik darajasiga moslash;
- matn asosida fikrlarni jamlash;
- matn qismlarini tanlab o'qish kabilar.

Yuqoridagi barcha strategiyalar o'quvchilarda o'qish jarayonining samarali kechishiga hissa qo'shadi. Qolaversa, o'qituvchi o'quvchilarning xohishi, qiziqishi va layoqatiga ko'ra o'ziga mos strategiyani o'qish jarayoniga tadbiq etishi ham mumkin. Dunyoda deyarli barcha til o'qitish metodikasi bilan shug'ullanuvchi olimlar o'qish texnikalari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tishadi:

1. Matn haqida umumiy ma'lumot olish uchun tez o'qish. Maqsad – matnda ifodalangan asosiy g'oyani tushunish, matn nima haqida ekanini anglash. Bu o'qish texnikasi xorijiy metodistlar tomonidan “skimming” atamasi orqali ifodalanadi. “Skim” so'zi “sutdan qaymoqni ajratib olish” ma'nosini anglatib, o'qish texnikasi sifatida matnning “qaymog'ini”, ya'ni mazmunini tezda fahmlab olish sifatida tushuniladi.

2. Matndagi aniq tarzda yillar, oylar, sanalar, tarixiy davrlar, telefon, uy, kvartira raqmlari tarzida ko'rsatilgan ma'lumotlarni olish uchun matnni ikir-chikirlarigacha o'qish texnikasi. Xorijiy adabiyotlarda ushbu o'qish texnikasini “scanning” shaklida qo'llanilishiga guvoh bo'lamiz. Bunda o'quvchi matndan nima izlayotganini aniq bilgan holda matnni aynan shu aniq ko'zlangan ma'lumotlarni topish uchun o'qiydi.

3. Intensiv (kuchli, tezkor) o'qish – bu matndagi tafsilotlarni eslab qolish va barcha so'zlarni tushunish, grammatik shakllarni va matn mazmunini anglash uchun diqqat bilan o'qishdir. Maktablarda asosan ushbu o'qish texnikasi ko'p qo'llanilishiga guvoh bo'lamiz. Matn topshirig'idan qat'iy nazar o'quvchilar ushbu o'qish texnikasini matnni o'qish jarayonida qo'llashlari ba'zan matn o'qish samaradorligiga salbiy ta'sir o'tkazishi ham mumkin.

4. Keng qamrovli o'qish-bu o'qish texnikasini “ekstensiv o'qish” atamasi bilan ham nomlanadi. Bu o'qish texnikasida matnning alohida parchalariga, aniq ma'lumotlarga, grammatik strukturalarga e'tibor bermagan holda matndan zavq olish maqsadida, odatda ichda, ovoz chiqarmasdan o'qishga e'tibor qaratiladi.

Avval ta'kidlanganidek, o'qish texnikalarini egallash, matnni o'qishga strategik yondoshish muntazam mashqlar orqali o'qish malakalarini shakllantiradi.

Tilshunos olim T. Hadson o'qish malakalarini quyidagi to'rt turga bo'ladi [9]:

1. So'zga hujum (“Word-Attack Skills”) malakasi matndagi orfografik belgilarni anglash, bo'g'inlarni, bosh va kichik harflar bilan so'zlar yozilganligi, gaplar va paragraflarni bir-biridan ajrata olish, tushunishdir.

2. Anglash malakasi (“Comprehension skills”)-o'quvchi matn nima haqida ekanligini tushunishi malakalari. Matn mazmunini matn kontekstidan, o'zining avval egallagan tilga oid bilimlarini qo'llagan holda tushuna olishi. O'quvchining grammatik, leksik, metakognitiv kompetentligi ushbu malakalar orqali aniqlanadi.

3. Ravon o'qish malakasi-o'quvchining matnning katta qismini lug'atga yoki grammatik ma'lumotnomalarga tayanmagan holda o'qiy olishi.

4. Tanqidiy o'qish malakasi-o'quvchining matnni tahlil qilish, ma'lumotlarni hayotga bog'lay olish va o'zining unga nisbatan bahosini, munosabatini bildirishidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ijod va ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining ta'lim olishlari yakunida (10-11-sinflar o'quvchilasi) IELTS, TOEFL, SAT kabi xalqaro va milliy imtihon tizimlari bo'yicha til bilish darajasi sertifikatlarini egallashlari lozimligi "Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risida"gi PF-106-sonli farmonida alohida ta'kidlab o'tildi [8,3-band]. Yuqorida nomlari keltirilgan til bilish darajasini baholash imtihon tizimlari tomonidan tashkil etiladigan imtihonlarda nomzodlarning chet tili bo'yicha tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish singari asosiy to'rt turdagi nutq malakalari sinovdan o'tkaziladi. Bular orasida o'qib tushunish topshiriqlari ham nomzodlarning yetarli imtihon balini qo'lga kiritishlarida asosiy o'rinlardan birini egallaydi, albatta. O'qituvchilar o'quvchilarga yuqori sinflarda tilni o'qitishda til bilish darajasini aniqlash imtihonlarida keng qo'llaniluvchi topshiriqlar asosida darslarini tashkil etishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun avvalo xalqaro va milliy til bilish darajasini baholash uchun tashkil etiladigan imtihonlarda qay turdagi savollar va topshiriqlar qo'llanilishini bilib olish lozimdir. O'qib tushunish malakalarini baholash uchun quyidagi turdagi topshiriq va mashqlardan keng foydalaniladi:

1. Matn asosidagi jumlani matndan mos so'zlar bilan to'ldirish mashqlari-bu turdagi topshiriqlarda o'quvchilar gapdagi bo'shliqlarni matnni o'quib chiqqan holda kerakli so'zlar yoki raqamlar bilan to'ldirishlari talab etiladi.

2. Matn qismlaridagi ma'lumotlarni aniqlashtirish topshiriqlari-bu kabi test savollarida berilgan matn odatda bir mavzu atrofida jamlangan turli matn parchalaridan tashkil topadi. Masalan, biror bir shahardagi mavjud umumiy ovqatlanish maskanlari yoki mehmonxonalar kabi. Topshiriqda har bir manzil haqida tasvirlovchi paragraflar, jumlar beriladi va nomzodlar shu gaplardagi ma'lumot matnning qaysi qismiga taalluqli ekanini aniqlashlari kerak bo'ladi.

3. Matndagi paragraph (matnning bir qismi, matn mazmuni doirasida uning bir qismi sifatida alohida tugallangan ma'lumotni ifodalovchi qism) ma'lumotlariga mos sarlavha tanlash topshiriqlari.

4. Matnning umumiy mazmuniga monand bosh matn sarlavhasini aniqlash topshiriqlari.

5. Matndagi paragraph ma'lumotlarini xulosalovchi berilgan jumalarni ushbu ma'lumotlar aynan matnning qaysi paragrafida berilganini topishga mo'ljallangan topshiriqlar.

6. Matn mazmunini umumiy xulosalovchi, matnning bosh g'oyasi nima haqida ekanligini o'quvchi nechog'li tushunganligini aniqlashga qaratilgan topshiriqlar-ushbu turdagi topshiriqlarda odatda matn mazmunini xulosalovchi bir nechta gaplar beriladi va nomzodlar shular orasidan eng munosib javobni belgilashlari kerak.

7. Ko'p tanlovli savollar-ushbu turdagi o'qish malakasini aniqlash test topshiriqlarida matndagi mavjud faktlar, dalillar asosida savollar beriladi va savolga to'rtta muqobil javoblar ham A, B, C, D shaklida taqdim etiladi, o'quvchilar berilgan javoblar orasidan matn asosida eng mosini tanlashlari kerak bo'ladi.

8. Matnda berilgan yillar, vaqt ko'rsatkichlari, sanalar, raqam bilan ifodalangan ma'lumotlar va ularda sodir bo'lgan voqealarni bir-biriga moslash topshiriqlari.

9. Jadvallarni va diagrammalarni berilgan matndagi ma'lumotlarga mos holatda to'g'ri so'zlar va raqamlar bilan to'ldirishga qaratilgan topshiriqlar.

10. “Ha”, “Yo’q” va “Berilmagan” tarzida javob berishni talab etuvchi topshiriqlar – Bunday topshiriqlarda matn asosida ma’lumotlar beriladi va nomzodlar ushbu ma’lumotlar matn ma’lumotlariga mos bo’lsa “Ha”, matn ma’lumotlariga mos kelmasa “Yo’q” va bu ma’lumot matnda keltirilmagan bo’lsa “Berilmagan” tarzida javob berishlari kerak bo’ladi. Ba’zida “Rost” va “xato” (“True”, “False”) so’zlari orqali ham savollar berilishi mumkin.

11. Matnni mazmuniga mos jumlar bilan yakunlash, gapdagi bo’shliqlarni to’ldirish topshiriqlari.

Chet tili imtihonlarining o’qib tushunish malakalarini baholash qismida qanday topshiriqlar qo’llanilishini bilish orqali ixtisoslashtirilgan maktablarda chet tilini o’qitishda o’qish kompetensiyasini rivojlantirish uchun qo’llanilishi lozim bo’lgan mashq turlarini aniqlashtirib olishimiz mumkin. Ushbu tadqiqotga jalb etilgan o’qituvchilarga “O’qituvchilarning o’qish kompetensiyasini rivojlantiruvchi mashqlarga, darslikda berilgan matnlarga munosabati qanday?

“Sinfda o’qish qanday o’rgatiladi?”, “Qanday o’qish strategiyalarini o’quvchilar bilan darsingiz mobaynida qo’llaysiz?” ko’rinishida savollar bilan murojaat etildi.

So’rovda ishtirok etgan ixtisoslashtirilgan maktablar o’qituvchilari o’quvchilarda xalqaro va milliy til bilish darajasini ko’rsatuvchi sertifikatlarni olishga ishtiyoqlari kuchli ekanini ta’kidladilar va darslarida president, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar agentligi tavsiyasiga binoan “Laser” darslik majmualaridan foydalanish barobarida Cambridge IELTS til bilish darajasini aniqlash imtihonlariga tayyorlanish materiallaridan ham qo’shimcha tarzda darsda va darsdan tashqari mashg’ulotlarda foydalanishlarini aytib o’tdilar. Tavsiya etilgan darslik majmuasida berilgan o’qish ko’nikmalarini rivojlantirishga yo’naltirilgan mashqlar va matnlar borasida ijobiy fikrlarini bildirdilar. “Sinfda dars jarayonida o’qish qanday o’rgatiladi?” degan savolga o’qituvchilar javob berishda biroz qiynaldilar va har bir o’qituvchi o’ziga xos, sinf o’quvchilarining talabiga mos holda matnlar bilan ish olib borilishini bildirilar.

O’qish strategiyalari to’g’risida berilgan savolga javoblardan olingan xulosa shunday bo’ldiki, o’qituvchilarimiz o’qitish strategiyalari haqida yetarlicha bilimga ega emas ekanlar. O’qituvchilarga darslik majmuaning o’qituvchi uchun tayyorlangan qo’llanmasidan kengroq foydalanish bo’yicha tavsiyalar berildi.

XULOSALAR

Quyidalarni ushbu maqolamizdan olingan xulosalar sifatida taqdim etamiz. Dastlab o’qituvchilar o’qishning chet tilini o’rganish va o’rgatish jarayonida nechog’lik katta ahamiyatga ega ekanligini tushunib olishlari lozim. Agar o’qituvchilarning o’zlari o’qish malakalarining ahamiyatini anglamasalar o’quvchilarga ham o’qish kompetensiyasini rivojlantirishlarida unchalik yordam bera olmaydilar. Chunki darslarda asosan leksik, grammatik bilimlar egallanishiga asosiy e’tibor qaratilgan holda o’qish ko’nikmasini rivojlantirish mashqlariga yetarli darajada e’tibor qaratilmayotgani kuzatishlarimiz asosida ma’lum bo’lmoqda. Bunga sabab sifatida o’qituvchilarning o’zlarida o’qishning ahamiyatiga nisbatan, o’qish strategiyalari va o’qish topshiriqlarini qanday tashkil etish borasida yetarlicha malakalar shakllanmaganligini sabab sifatida ko’rsatishimiz mumkin. O’qituvchining o’zi ham o’rganilayotgan chet tilida muntazam ravishda ilmiy, badiiy, axborot beruvchi adabiyotlarni mutolaa qilish orqali o’quvchilariga ibrat bo’lishi lozim deb hisoblaymiz. O’qituvchilarimiz o’qish jarayonini qay tarzda tizimli tashkil etishga oid metodik bilimlari va tajribalarini boyitib borishlari taqozo etiladi.

O'qish topshiriqlarini kommunikativ yondoshgan holatda boshqa nutq faoliyati turlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar bilan integratsiyalashgan holda o'quv jarayonini tashkil etilishi, o'qitish chog'ida ixtisoslashtirilgan maktablarda o'quvchilarida matnni strategik yondoshgan ravishda idrok etish qobiliyatlari va o'qish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'quvchilarga darsdan tashqari ishlash uchun ham o'qish topshiriqlarini tizimli tarzda berib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qish mashqlari uchun o'quvchilarga yetarli vaqt ajratish chet tilini mukammal o'rganishlarida qo'l keluvchi vositalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. - T.: O'qituvchi, 2012. - 252-282b.
2. Jeremy Harmer. How to teach English: An introduction to the practice of English language teaching. – Addison Wesley Longman Limited, 1998. - 212b.
3. Solovova Ye.N. Методика обучения иностранным языкам: Базовый курс лекций. - М.: Просвещение, 2005. - 215b.
4. Belyayevskaya L.I. va Zabornik L.S. Развитие навыков чтения на уроках английского языка как способ формирования аналитического мышления и исследовательских навыков школьников. - Международный научный журнал "Вестник науки", May 2019, №5. - 237-241 b.
5. Margrethe Harestad Bakke. Teaching reading in EFL-instruction. What are teachers' attitudes towards reading in EFL-instruction and how is it taught in class? - University of Oslo. 2010.
6. Krashen, S. D. (2004). The power of reading: insights from the research (2nd ed.). Westport, Conn. Portsmouth, NH: Libraries Unlimited; Heinemann.
7. Elektron manba: <https://ielts-academic.com/2012/08/15/ielts-reading-10-tips-for-teachers>. Murojaat sanasi: 09.08.2023.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.04.2022-yildagi "Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini kengaytirish to'g'risida"gi PF-106-sonli farmoni. Elektron resurs: LexUZonline platformasi. Murojaat sanasi: 18.04.2023
9. T. Hudson. Teaching Second Language Reading. Oxford University Press. 2007. 350 b.